

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI

ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК

REVIEW OF LAW SCIENCES

huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

правовой научно-практический журнал

legal scientific-practical journal

2024-yil maxsus son

VOLUME 8 / SPECIAL ISSUE / 2024

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2024.8.SN.

ISSN 2181-919X

E-ISSN 2181-1148

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS



Crossref
Content
Registration

TAHRIR HAY'ATI

I. RUSTAMBEKOV

Toshkent davlat yuridik universiteti rektori v.v.b.,
yuridik fanlar doktori, professor – bosh muharrir

B. XODJAYEV

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor,
yuridik fanlar doktori, professor – bosh muharrir
o'rinbosari

O. CHORIYEV

Tahririy-nashriyot bo'limi boshlig'i – mas'ul muharrir

A. SAIDOV

Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy
markazining direktori, yuridik fanlar doktori, professor

EDVARD JUCHNIEWICZ

Polshaning Gdansk universiteti Huquq va boshqaruv
fakulteti Moliyaviy huquq kafedrasida professori, huquq
doktori

AMMAR YOUNAS

TDYU Biznes huquqi kafedrasida o'qituvchisi

O. OKYULOV

TDYU Fuqarolik huquqi kafedrasida professori, yuridik
fanlar doktori

J. NEMATOV

TDYU Ma'muriy va moliya huquqi kafedrasida professori
v.b., yuridik fanlar doktori

SH. ASADOV

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Davlat boshqaruvi akademiyasi Davlat tuzilishi
va boshqaruvining huquqiy asoslari kafedrasida
professori v.b., yuridik fanlar doktori

M. AMINJONOVA

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi
akademiyasi Qonunchilik ijrosi ustidan nazoratni
tashkil etish kafedrasida dotsenti, yuridik fanlar doktori

M. RAHIMOV

TDYU Mehnat huquqi kafedrasida dotsenti v.b., yuridik
fanlar bo'yicha falsafa doktori

O. NARZULLAYEV

TDYU Ekologiya huquqi kafedrasida professori, yuridik
fanlar doktori

B. MURODOV

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi
Akademiyasi Tergov faoliyati kafedrasida boshlig'i,
yuridik fanlar doktori, professor

A. MUXAMEDJANOV

TDYU Xalqaro huquq va inson huquqlari kafedrasida
professori, yuridik fanlar doktori

N. NIYAZOVA

TDYU O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida dotsenti,
pedagogika fanlari nomzodi



Nashriyotchi:

giz Deutsche Gesellschaft
für Internationale
Zusammenarbeit (GIZ) GmbH

Ushbu nashr GIZning "Markaziy Osiyoda huquqiy
davlatchilikni qo'llab-quvvatlash" dasturi ko'magi doirasida
chop etildi.

Dastur Deutsche Gesellschaft für Internationale
Zusammenarbeit (GIZ) GmbH (Germaniya xalqaro hamkorlik
jamiyati) tomonidan Germaniya iqtisodiy hamkorlik va
taraqqiyot federal vazirligi (BMZ) buyurtmasi asosida
amalga oshirilmoqda.

Mazkur jurnalning maxsus sonida keltirilgan ma'lumotlar, xulosalar, fikrlar va talqinlar mualliflarning fikrlaridir, ular
hech qanday tarzda GIZ yoki BMZ nuqtayi nazarini aks ettirmaydi.

Bepul tarqatish uchun mo'ljallangan.

MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI
huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК
правовой научно-практический журнал

REVIEW OF LAW SCIENCES
legal scientific-practical journal

"Yuridik fanlar axborotnomasi – Вестник юридических
наук – Review of law sciences" huquqiy ilmiy-amaliy jurnali
O'zbekiston axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agent-

ligi tomonidan 2020-yil 22-dekabrda 0931-sonli guvohnoma
bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Jurnal Oliy attestatsiya komissiyasi jurnallari ro'yxatiga
kiritilgan.

Mualliflik huquqlari Toshkent davlat yuridik universitetiga
tegishli. Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal material-
laridan foydalanish, tarqatish va ko'paytirish muassis
ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Sotuvda kelishilgan narxda.

ISSN 2181-919X
E-ISSN 2181-1148

© Toshkent davlat yuridik universiteti

MUNDARIJA

5 **КОПЕЦКИ КРИСТОФ**
Приветственное слово

6 **ЦИКО ЯН**
Приветственное слово

9 **САЙДУЛЛАЕВ ШАХЗОД АЛИХАНОВИЧ**
Приветственное слово

11 **СУЛТАНОВ РАВШАН АДILEВИЧ**
Приветственное слово

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ. MOLIYA VA VOJXONA HUQUQI

13 **АЛАНАЗАРЗОДА ШАРОФ**
Законодательство об административных
процедурах и судопроизводстве Республики
Таджикистан: опыт и перспективы реформирования

19 **ПУДЕЛЬКА ЙОРГ**
Комментарий к закону и его роль в судебной
практике: взгляд немецкого судьи

26 **ДОСМАМБЕТОВА ЧОЛПОН МОНОЛДОРОВНА**
Применение административными судами
Кыргызской Республики норм законодательства
об административных процедурах, связанных
с досудебным порядком обжалования

35 **ДУЙСЕНОВА ЖАНАР МУХАМЕДКАЛИЕВНА**
Судебная практика проверки соблюдения
административной процедуры

40 **YUSUPOV SARDORBЕК BAHODIROVICH**
O'zbekistonda ma'muriy tartib-taomillarning asosiy
prinsiplarini qo'llashning ayrim jihatlar

50 **ТУЛЬТЕЕВ ИЛЪЯС ТАВАСОВИЧ**
Конституционные основы государственного
управления: некоторые аспекты законодательной
конкретизации

59 **NEMATOV JO'RABEK NEMATILLOYEVICH**
O'zbekiston Respublikasi "Ma'muriy tartib-taomillar
to'g'risida"gi Qonuni qabul qilinganiga 6 yil to'lishi
arafasida: asosiy yutuqlar va muammolar

- 72 **ЛИ АДИК**
Система органов государственного управления в сфере предпринимательской деятельности
- 80 **ХВАН ЛЕОНИД БОРИСОВИЧ**
Роль научных позиций в сфере публично-правового регулирования и их перспективы в Республике Узбекистан
- 86 **JURAYEV SHERZOD YULDASHEVICH**
Ma'muriy-huquqiy munosabatlarda mutanosiblik prinsipining o'ziga xos o'rni va uning huquqiy ahamiyati
- 95 **TURABOYEV IXTIYORJON QOBILOVICH**
Soliqlarni kechiktirib yoki bo'lib-bo'lib to'lashning o'ziga xos xususiyatlari
- 102 **SAMIG'JONOV FAZLIDDIN RAFKATOVICH**
Budjet jarayoni va uning bosqichlari
- 110 **AXROROV ADXAMJON ASRORKUL O'G'LI**
Ekologiya sohasidagi ma'muriy-huquqiy nizolarni sud tomonidan hal qilishning ayrim jihatlari
- 118 **G'OZIYEV KOZIMBEK JOVLONBEKOVICH**
Oliy ta'lim tashkilotlari ma'muriy huquqning subyekti sifatida
- 129 **RAJABOVA KARIMA QAHRAMONOVNA**
Saylovga oid nizolarni hal etish usullari
- 135 **RAXMONOV OTABEK QO'CHQOR O'G'LI**
Korporativ huquq subyektlarini qayta tashkil etish shakllari va turlarini tasniflash va tizimlashtirish
- 143 **JURAEVA ASAL BAKHTIYEVNA,**
ABDIRAKHIMOV ISLOMJON ILKHOMJON UGLI
A brief analysis of uzbekistan bit practice: investor and state dispute resolution
- 156 **XUDOYBERGANOVA MAVJUDA HAMROQULOVNA**
Farmatsevtika faoliyatini litsenziyalashning huquqiy asoslari
- 164 **АВЕЗОВА ЭЛЕОНОРА ПАРАХАТОВНА**
Институт социальной защиты государственных гражданских служащих: теоретические и методологические подходы
-
- 164 **СПИСОК ЗАКОНОДАТЕЛЬНЫХ АКТОВ СТРАН ЕВРОПЕЙСКОГО СОЮЗА РЕГУЛИРУЮЩИХ ИНСТИТУТ АДМИНИСТРАТИВНЫХ ПРОЦЕДУР**
-

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.rols.2024.8.sn./K00K3886>
UDC: 342.9:378.1(045)(575.1)

OLIIY TA'LIM TASHKILOTLARI – MA'MURIY HUQUQNING SUBYEKTI SIFATIDA

G'oziyev Kozimbek Jovlonbekovich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Ma'muriy va moliya huquqi kafedrası o'qituvchisi
ORCID: 0000-0002-8093-7332
e-mail: kozimg@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada davlat va nodavlat oliy ta'lim tashkilotlarini tashkil etish va tartibga solish munosabatlarining mazmun-mohiyati, boshqaruvni amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, mavjud milliy qonunchilikni tahlil etish asnosida oliy o'quv yurtlarini boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan. Sohaga keng avtonomiya va erkinlik berish masalasiga alohida to'xtalib o'tilgan. Shu bilan birga, davlat oliy ta'lim tashkilotlariga akademik mustaqillik berishning prinsipial jihatlarini bugungi kun talablariga moslashtirish, ta'lim tashkilotlari hamda sohani tartibga soluvchi davlat tashkilotlarining o'zaro munosabati, shuningdek, xorijiy tajriba asosida boshqaruvni tashkil etish masalasi ko'tarilgan. Oliy ta'lim tashkilotlarining akademik mustaqillik borasidagi muammolarini bartaraf etishning zamonaviy yechimlaridan biri sifatida chet el davlatlarining universitetlari amaliyotini qo'llagan holda davlatga qarashli oliy ta'lim tashkilotlarini xususiyashtirish, faoliyatlarini mustaqil olib borish mumkinligi qayd etilgan. Shuningdek, ta'lim tashkilotlarini tashkil etish va boshqarish jarayonida vujudga keladigan litsenziyalash, akkreditatsiya bilan bog'liq holatlar tizimli tarzda o'rganilib, oliy ta'lim tashkilotlari ma'muriy huquqning subyekti sifatida davlat boshqaruvi organlari bilan vujudga keladigan holatlari tadqiq qilingan.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim tashkiloti, litsenziya, ruxsat berish, subyekt, boshqaruv, akademik mustaqillik.

ВЫСШЕЕ УЧЕБНОЕ ЗАВЕДЕНИЕ КАК СУБЪЕКТ АДМИНИСТРАТИВНОГО ПРАВА

Гозиев Козимбек Жовлонбекович,
преподаватель кафедры «Административное и финансовое право»
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В статье анализируется содержание отношений, складывающихся в сфере создания и регулирования государственных и негосударственных высших учебных заведений. На основе анализа действующего национального законодательства раскрыты особенности управления высшими учебными заведениями. Особое внимание уделяется вопросу предоставления данной отрасли широкой автономии и свободы. Вместе с тем поднимается вопрос об адаптации принципиальных аспектов предоставления академической независимости государственным высшим образовательным учреждениям в соответствии с требованиями сегодняшнего дня, организации взаимодействия образовательных учреждений с государственными органами, регулирующими эту сферу, а также внедрении управления ими на основе зарубежного опыта. В качестве одного из современных решений преодоления проблем академической независимости организаций высшего образования отмечается возможность приватизации государственных организаций высшего образования и ведения их

деятельности самостоятельно, используя практику университетов зарубежных стран. Также систематически изучались случаи, связанные с лицензированием и аккредитацией, возникающие в процессе организации и управления образовательными организациями, а также ситуации взаимодействия организаций высшего образования как субъектов административного права с органами государственного управления.

Ключевые слова: высшее учебное заведение, лицензия, разрешение, субъект, управление, академическая независимость.

HIGHER EDUCATION ORGANIZATIONS AS A SUBJECT OF ADMINISTRATIVE LAW

Goziev Kozimbek Javlonbekovich,

Tashkent State University of Law

Lecturer of the Department of Administrative and Financial Law,

Abstract. The article analyzes the content of relations developing in the sphere of creation and regulation of state and non-state higher educational institutions. Based on the analysis of current national legislation, the features of the management of higher educational institutions are revealed. Particular attention is paid to the issue of providing this field with broad autonomy and freedom. At the same time, the issue of adapting the principles of granting academic independence to state organizations of higher education to modern requirements, interaction between educational organizations and state organizations regulating the sphere, as well as the organization of management based on foreign experience was raised. Proposals and recommendations were developed in areas of research work. As one of the modern solutions to the problem of academic independence of higher educational institutions, the possibility of privatization and independent conduct of activities of state higher educational institutions using the practice of universities in foreign countries was noted. Situations related to licensing and accreditation that arise in the process of organizing and managing educational institutions are also systematically studied, as are situations arising with the government bodies of higher education organizations as subjects of administrative law. The author reveals all the relationships that develop between government bodies and higher educational institutions, in which a higher educational institution is considered as one of the subjects of administrative law, based on the study of current legal and statutory acts and modern trends in the field of public administration of higher educational institutions.

Keywords: higher education institution, license, give permission, subject, management, academic independence.

Kirish

Oliy ta'lim tashkilotlari (OTT)ning huquqiy maqomi va faoliyatini tashkil etish asoslariga qiziqish ijtimoiy sohada olib borilayotgan doimiy islohot jarayonlari bilan bog'liq. Ta'limning sifat o'zgarishlari na faqat oliy o'quv yurtlarining davlat tomonidan tartibga solish va boshqarishdagi kamchiliklari va shartlarida, balki ta'lim tashkilotlarining huquqiy maqomida ham namoyon bo'ladi.

Oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini oshirish, davlat

oliy ta'lim tashkilotlarining akademik mustaqilligini ta'minlash, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash masalalarini mustaqil hal etish, boshqaruvning o'ziga xos jihatlari, ta'lim tashkilotlariga davlat organlari tomonidan yer ajratishdan boshlab, litsenziya va ruxsat berish, attestatsiya va akkreditatsiyadan o'tkazish bilan bog'liq jarayonlarda ommaviy munosabatlarda ma'muriy huquqning mustaqil subyekti sifatida ishtirok etishini yaxshilashga zamin yaratadi.

Bu borada oliy ta'lim tashkilotlarining ma'muriy-huquqiy jihatdan davlat bilan

munosabatlarini tartibga soladigan “Ta’lim to’g’risida”gi Qonunning oliy o’quv yurtlari bilan bog’liq munosabatlarini tartibga soluvchi normalari, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 15.09.2017-yildagi “Nodavlat ta’lim xizmatlari ko’rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-3276-son, 16.01.2019-yildagi “Ta’lim sifatini nazorat qilish tizimini takomillashtirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi PQ-4119-son qarorlari, 09.10.2019-yildagi “O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi PF-5847-son Farmoni va Vazirlar Mahkamasining “Davlat ta’lim muassasalari hamda nodavlat ta’lim tashkilotlarini attestatsiyadan va davlat akkreditatsiyasidan o’tkazish tartibini takomillashtirish to’g’risida”gi 470-sonli qaror va boshqa qonunosti hujjatlari bilan

ma’muriy huquq subyekti sifatida ommaviy munosabatga kirishadi.

Shu bilan birga, 2022-yil 20-dekabrdagi O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O’zbekiston xalqiga murojaatnomasida 2023-yil “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili” deb e’lon qilinishi, bu sohadagi muammolarni bartaraf etish bo’yicha yangi yo’nalishlarni tadqiq etishni taqozo etadi.

Bugungi kunda biz tadqiq etayotgan sohaning ommaviy munosabatlarda ma’muriy huquqni alohida subyekti sifatida ko’rili-shi, davlat organlari bilan munosabatlarda tashkilot nomidan individ sifatida ishtirok etishida xorijiy davlatlarning ta’lim sohasida-gi amaliyotini o’rganganimizda, xorijiy dav-latlarda ma’muriy huquq subyekti sifatida ishtirok etishida bir yoki ikkita qonun norma-lari bilan tartibga solinganini ko’rish mum-kin.

Jadval

	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	Jami
Qonun					1			-	1
Prezident qarorlari va farmonlari	1	14	16	24	10	5	31	9	110
VM qarorlari	2	27	29	47	14	5	20	6	150
Vazir buyruqlari	3	17	27	8	5	9	8	10	87

Bizda davlat tomonidan oliy ta’limning yuqoridagi jadvalda ko’rsatilgan 348 ta huquqiy-hujjatlar bilan tartibga solinishining o’zi ham to’liq byurokratik tizimdan iborat ekanligining isbotidir.

Ta’lim tashkilotlari tomonidan ta’limni tashkil etishda vakolatli organlar bilan bog’liq bo’lgan munosabatlar, ya’ni davlatga qarashli bo’lgan oliy o’quv yurtlarining attes-tatsiyadan o’tishi yoki davlat rahbari yoxud hukumat tomonidan tashkil etilishi, litsenziya olish, bino-inshootlarga egalik qilish, soliq huquqiy munosabatlardagi imtiyoz va pref-erensiyalardan foydalanish, nodavlat ta’lim tashkilotlarining yuridik shaxs sifatida ro’yx-atdan o’tishi, litsenziya olishi, inshootlar qur-ilishi uchun tegishli organlardan ruxsatnom-alar olishi, yer uchastkalariga bo’lgan egalik

sohasidagi munosabatlar, davlat va nodavlat ta’lim tashkilotlarining ma’muriy huquq su-byekti sifatida ommaviy-huquqiy munosa-batlarda ishtirok etishidagi farqli va o’zaro o’xshash jihatlarini o’rganishni taqozo etadi. O’zbekistonda mazkur soha o’rganilmaganligi va ta’lim tashkilotlarining alohida ma’muriy huquq subyekti sifatidagi munosabatlarda ishtirok etishi va boshqarish yo’nalishida ilm-iy ishlar mavjud emasligi ta’lim tashkilotlar-ining akademik jihatdan mustaqilligiga qis-man putur yetkazadi. Shu sababli ham davlat tomonidan ta’limni boshqarishning cheg-aralarini aniq belgilash va universitetlarn-ing avtonomligini oshirish zarur huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va ta’lim tizimidagi boshqaruv organlarining vakolatlarini aniq belgilash masalalarini dolzarblashtiradi.

Mazkur maqolada ta'lim tashkilotlarining ma'muriy huquq subyekti sifatida qaysi jabhalarda namoyon bo'lishi va ularni samarali tashkil etish bilan birga uni boshqarish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.

Adabiyotlar tahlili. Oliy ta'lim tashkilotlarini boshqarish va tashkil etishda davlat organlari bilan bo'ladigan ommaviy munosabatlarda litsenziya berish, ruxsat berish va boshqa sohaga oid masalalar asosan xorijiy mamlakatlar olimlari tomonidan ilmiy izlanishlar, tadqiqotlar olib borilib, xulosalar taqdim etilgan.

Oliy ta'lim tashkilotlarining ma'muriy huquq subyekti sifatidagi ahamiyati yuzasidan Scopus ma'lumotlar bazasida 147 ta ilmiy maqola va bir qator olimlar tomonidan ishlanmalar e'lon qilingan bo'lib, ularning ba'zilarini tahlil qilib chiqamiz.

S. Dubrovina (Dubrovina, 2006) va N. Kazarova (Kazarova, 2005) tomonidan oliy ta'lim tashkilotlari faoliyatini ma'muriy-huquqiy jihatdan tartibga solish va litsenziyalash faoliyati, Alberto Amaral (Amaral, 2020). AQSh, Kanada, Shveysariya kabi davlatlardagi ta'lim tashkilotlarning davlat organlari bilan o'zaro munosabatlarini, Kirillovix Andrey (Kirylovykh, 2005) esa oliy ta'lim tashkilotlarini ma'muriy huquq subyekti sifatida nimalarda namoyon bo'lishini, mahalliy va yuqori hokimiyat organlari bilan ommaviy munosabatlarda qanday ishtirok etishi yuzasidan tadqiqotlarni tizimli tarzda birlashtirib, alohida dissertatsiya himoya qilish bilan birga, oliy o'quv yurtlarini davlat tomonidan tartibga solishning nomarkazlashtirish effektini o'rgangan.

Material va metodlar

Tadqiqot doirasida barcha huquqiy fanlar uchun muhim bo'lgan ilmiylik, xolislik, tizimlilik, determenizm prinsiplari, xronologik uslub, qiyosiy-tahlil, formal-yuridik, induksiya, deduksiya va boshqa ilmiy metodlar qo'llandi.

Tadqiqot natijalari va tahlili

Maqolamiz asosiy mazmuni va uning obyektidan kelib chiqqan holda e'tiborni dav-

lat va nodavlat ta'lim tashkilotlarning tashkil etilishi, boshqarilishi va tuzilishi jarayonida ma'muriy huquqning alohida subyekti sifatida davlat organlari bilan bo'ladigan ruxsat berish, litsenziyalash, nazorat qilish, muvofiqlashtirish va shu kabi munosabatlarni milliy va xorijiy tajriba asosida yoritishga qaratamiz.

Oliy ta'limni modernizatsiya qilish jamiyat va davlatning, shu jumladan, ta'lim sohasining aniq ishlashiga bo'lgan ehtiyoji bilan belgilanadi. Oliy o'quv yurtlari ijtimoiy institutlar tizimining elementi bo'lib, ularning huquqiy maqomiga hamda birinchi navbatda ma'muriy sohaga alohida yondashuvni nazarda tutadi.

Oliy o'quv yurtlarining huquqiy maqomini aniqlash, faoliyatini tartibga soluvchi bir qator sohalarini (fuqarolik, mehnat va boshqa) o'rganishdan tashqari, OTTning ma'muriy huquq subyekti sifatidagi maqomini tavsiflovchi holatlarni ma'muriy huquqiy munosabatlar orqali ko'rib chiqish mumkin (Vladykina, 2003).

Xususan, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda oliy ta'lim tashkilotlari oliy ma'lumotli kadrlarni tayyorlashni amalga oshirishi belgilangan (11-modda). O'zbekiston Respublikasining ta'lim tashkilotlari va ularning filiallari, shuningdek, xorijiy davlatlar ta'lim tashkilotlarining filiallari yuridik shaxs maqomi bilan tashkil etiladi. Nodavlat ta'lim tashkilotlari litsenziya olingan kundan e'tiboran ta'lim faoliyati bilan shug'ullanishga haqli. Ta'lim tashkilotlari o'z faoliyatini ustav va (yoki) boshqa ta'sis hujjatlari asosida yuritadi (29-modda).

Yuqorida qayd etilgan normalar bizga oliy o'quv yurti haqida tadqiq qilayotgan masalamiz yuzasidan to'liq tasavvur bermaydi. U universitetlarning ma'muriy sohadagi o'rnini belgilaydigan asosiy muhim elementlarni aks ettirmaydi, ma'muriy huquq nuqtayi nazaridan ma'muriy huquqiy munosabatlar subyekti sifatida universitetlarning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash uchun muhim bo'lgan parametrlar bu yerda mavjud emas.

Ommaviy-huquqiy munosabatlarda va ma'muriy huquq sohasida oliy ta'lim tashkilotlarining ma'muriy-huquqiy munosabatlardagi o'рни va rolini aniqlash, ularning huquqiy maqomining ko'lamini va mazmuni bilan belgilanadigan holatlarni fuqarolik munosabatlardan ajratish zarur.

Xorijiy olimlar OTT tushunchasini belgilashda fuqarolik-huquqiy jihatdan yondashadi va uning elementlari sifatida quyidagilarni keltiradi:

- 1) notijorat tashkiloti maqomida bo'lish (Aleixo, Leal, & Azeiteiro, 2018, January 20);
- 2) litsenziyalash (Mause, 2008);
- 3) oliy kasbiy ta'limning ta'lim dasturlarini amalga oshirish (Hendricks, 1975, Summer);
- 4) davlat akkreditatsiyasiga ega bo'lish (Karpen, n.d.);
- 5) ta'sischi tomonidan moliyalashtirilishi;
- 6) mustaqil ravishda boshqarilish.

Albatta, davlat va nodavlat oliy ta'lim tashkilotlarining yuridik shaxs maqomida tashkil etilishi, fuqarolik huquqiy munosabatlari bilan tartibga solinishi mumkin. FKning 39-moddasida yuridik shaxs tushunchasiga ta'rif berilgan bo'lib, o'z mol-mulki bilan xo'jalik va operativ boshqaruvni amalga oshirishi, ma'lum bir majburiyatlarni bajarishi, suda qatnashishi mumkinligi qayd etilgan, biroq ularning keyinchalik faoliyat turlarini litsenziyalash, ruxsat berish va boshqa davlat organlarida ma'muriy munosabatlar bilan bog'liq bo'lgan holatlarning barchasida ma'muriy huquq subyekti sifatida ishtirok etadi. Shu sababli ba'zi xorijiy olimlarning bu fikrlariga qo'shilmaslik ham mumkin.

O'zbekistonda oliy ta'lim sohasida boshqaruvni, tashkil etishni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasi, tegishli vazirliklar (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi va tizimida oliy o'quv yurtlari mavjud bo'lgan tegishli vazirlik hamda idoralar) amalga oshiradi.

Oliy ta'lim sohasida tizimning murakkabligi shundan dalolat beradiki, ko'p hollarda oliy o'quv yurtlari ma'muriy huquqning

alohida subyekti sifatida davlat rahbari tomonidan tashkil etilishi bilan bog'liq jarayon hisoblanadi.

Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2022-yildagi PQ-386-sonli qaroriga asosan, Namangan to'qimachilik sanoati instituti tashkil etilib, uning asosiy faoliyat yo'nalishlari, mutaxassisliklari belgilab berilgan hamda institutning faoliyat yuritishi uchun Namangan shahari, "Gulobod" MFY, Janubiy aylanma yo'li ko'chasi, 17-uy manzilida joylashgan Namangan tadbirkorlikni tashkil etish texnikumining bino va inshootlari tegishli hududi bilan birgalikda operativ boshqaruv huquqi asosida bepul berilgan.

Bu tarzda ma'muriy huquqning subyekti boshqa subyektlardan farqli jihati shundaki, davlat rahbari tomonidan uning barcha yo'nalishlari qat'iy belgilab beriladi va keyinchalik esa unga o'zgartirish yoki qo'shimcha kiritish ham alohida tartibda olib boriladi.

Agarda davlat yoki hukumat rahbari tomonidan tashkil etilgan davlat oliy ta'lim tashkilotlarining nodavlat oliy o'quv yurtlaridan farqi, ma'lum bir ma'noda ustunlik jihati sifatida ularning faqatgina attestatsiya va akkreditatsiyadan o'tishi bilan cheklanib, qolgan ma'muriy munosabatlarda qatnashmaslikni ta'minlaydi. Bu esa, o'z navbatida, ta'lim sifati borasidagi raqobatga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Xorijiy mamlakatlar tajribasida esa oliy ta'lim tashkilotlarini tashkil etishda boshqa uslub asosida yondashiladi.

Dunyoning ko'plab mamlakatlarida davlat organlari yangi oliy ta'lim xizmatlarini yetkazib beruvchilarning bozorga kirishini nazorat qiladi. Oliy ta'lim sohasida litsenziyalash orqali minimal sifat standartlariga javob beradigan akademik dasturlar bilan ta'minlaydi. Hukumat tomonidan ushbu sifatni ta'minlash aralashuvi odatdagidek qabul qilinishi mumkin (Pechar & Park, 2017).

Bundan tashqari, hududiy mahalliy kengashlar va faol fuqarolar tomonidan ham

hududni iqtisodiy rivojlantirish uchun oliy ta'lim tashkilotlarini tuzish va ro'yxatdan o'tkazish va keyinchalik Senat tasdig'idan o'tkazish amaliyoti ham mavjud.

Masalan, AQSh Kanzas shtati Lavrense shahrimeri Endryu Rider 1855-yil 3-iyul kuni hududiy qonun chiqaruvchilar va faol fuqarolar bilan birgalikda davlat universiteti ochish uchun yig'ilish tashkil etilib, Kanzas universitetining Nizomini tasdiqlashgan va ta'lim dargohi 1869-yildan to'liq faoliyatini boshlagan (An Act to incorporate and provide for the institution and support of a University in Kan-sas Territory, 1855).

Ma'muriy-huquqiy munosabatlar subyekti sifatida ko'proq ishtirok etadigan nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari hisoblanib, biz yuqorida ko'rib chiqqan davlat rahbari tomonidan tashkil etilgan universitetdan farqli ravishda ular birinchi navbatda mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklida davlat ro'yxatidan o'tish uchun davlat xizmatlari markazlariga murojaat qilishadi va shu orqali ma'muriy-huquqiy munosabatga kirishib, soliq organlaridan ro'yxatdan o'tiladi.

Bu ma'muriy munosabatning dastlabki bosqichi hisoblanib, bu bosqichdan keyin tegishli ravishda amaldagi qonunchilikka binoan yer uchastkasi uchun auksionda qatnashib yer uchastkasi olishi, hujjatlarni mahalliy davlat hokimiyati organlariga topshirishi lozim.

Shundan so'ng nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari uchun litsenziyalash masalasi yuzasidan asosiy ma'muriy-huquqiy munosabat bo'lgan va Vazirlar Mahkamasining 27.03.2018-yildagi 241-sonli va Adliya vazirligidan 27.10.2023-yilda 3467-son bilan ro'yxatdan o'tgan davlat xizmatlari yagona reyestri haqidagi buyrug'iga asosan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga litsenziya olish uchun ariza va ilova hujjatlar topshirish mumkin bo'ladi.

Bu jarayonlarning barchasi fuqarolik munosabati emas, balki davlat organlari va xu-

susiy shaxslar o'rtasidagi ma'muriy-huquqiy munosabatlar bo'lganligi sababli ham davlat va nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari ma'muriy huquqning to'laqonli subyekti hisoblanadi.

Endi shu o'rinda bir muammoga to'xtalsak, ya'ni "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda ta'lim muassasasini akkreditatsiyalash va-kolatli davlat organi tomonidan attestatsiya-ga asosan amalga oshiriladi. Nodavlat ta'lim tashkiloti O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilagan tartibda davlat akkreditatsiyasidan o'tgan paytdan boshlab yuridik shaxs huquqlari va ta'lim faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ladi, deb qayd etilgan, Buning oqibatida esa muammolarning bir-biriga bog'liq halqasi vujudga kelmoqda: litsenziya olish uchun yuridik shaxs maqomiga ega bo'lish lozim, ammo qonun bo'yicha unga akkreditatsiyadan keyin ega bo'linadi. Akkreditatsiyani esa ta'lim sifati belgilangan standartlar va talablarga javob berishi isbotlanganidan keyin olish mumkin.

Nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari tomonidan litsenziya olish borasidagi ma'muriy-huquqiy munosabat uchun license.gov.uz elektron tizimdan foydalangan holda tegishli yo'nalishlarni va belgilangan bir qator talablar asosida, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 21.02.2022-yildagi "maxsus elektron tizim orqali ayrim faoliyat turlarini litsenziyalash tartibi to'g'risidagi yagona nizomni tasdiqlash haqida"gi 80-sonli qarori bilan belgilangan Nizomga binoan ma'muriy organga ariza va unga bir qator hujjatlarni ilova qilish, ya'ni, yuridik shaxs to'g'risidagi to'liq ma'lumotlar, litsenziya talabgorining litsenziya talablari va shartlariga rioya qilishga roziligi, avtomototransport vositalari, pedagog kadrlar haqida ma'lumot, o'quv rejasi va dasturlarining elektron nusxalari va boshqa belgilangan 11 ta talablarni bajarganligi haqidagi ma'lumotlarni taqdim etishi lozim.

Shundan so'ng litsenziyalovchi organ tomonidan arizani ko'rib chiqish uchun bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdorida yig'im undirilib, 30 kun ichida arizani ko'rib

chiqadi va barcha talablar bajarilgan bo'lsa, litsenziya berilganligi uchun BHMning 10 baravari miqdorida o'sha talabgorning o'ziga litsenziya beriladi. Bu esa yaqqol ma'muriy-huquqiy munosabat hisoblanadi.

Bugungi kunda O'zbekistonda xorijiy davlatlar universitetlarini ochish uchun quyidagi huquqiy modellardan foydalanish mumkin:

1. O'zbekiston Respublikasi hududida tashkil qilingan yuridik shaxsni mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklida tashkil qilib, mazkur tashkil qilingan notijorat tashkiloti xorijiy davlat universiteti bilan kompleks tadbirkorlik shartnomasi (franshizing) tuzadi. Mazkur shakldagi hamkorlikning asosiy sharti xorijiy universitetga ko'rsatilgan ta'lim xizmatlari uchun har o'quv yili yakunida shartnomada belgilangan aniq pul summasi to'lanadi.

Mazkur shaklda tashkil qilingan universitet filiallari sifatida Turin politexnika universiteti, Inha universiteti, Xalqaro Vestminster universitetlarini ko'rsatib o'tish mumkin. Ushbu shakldagi hamkorlik doirasida xorijiy davlat universiteti yangi tashkil qilingan filialni to'liq o'quv va o'quv uslubiy qismi, ya'ni ta'lim sifati, o'quv dasturlari va talablari, talabalar bilimni baholash, o'quv jarayoni muvofiqlashtirish va rejalashtirish, o'qituvchilarni tanlov asosida ishga olish hamda ularning malakasini oshirish, xorijiy universitet diplomini berishga javob beradi. Shu sababli, o'quv ishlari bo'yicha prorektor va dekan xorijiy universitet vakili etib tayinlanadi. Ushbu shakldagi hamkorlik doirasida universitetning egasi uni tashkil qilgan O'zbekiston yuridik shaxs(lar)i hisoblanadi. Shu sababli yangi tashkil qilinadigan universitetning binosi va barcha infrastruktura, moddiy-texnik ta'minot hamda marketing xizmati O'zbekiston tomonidan ta'minlanadi.

Mazkur shaklda universitetni tashkil qilishning salbiy tomoni sifatida xorijiy hamkorning universitet faoliyatida ko'rilgan zarar uchun javobgar bo'lmasligidir. Barcha iqtisodiy tavakkalchilik O'zbekiston zimma-

siga yuklatiladi. Har qanday holatda ham (kam miqdorda abituriyentlarni o'qishga topshirishidan qat'i nazar) O'zbekiston tarafi belgilangan qat'iy summani xorijiy universitetga to'lashga majbur.

2. Xorijiy davlat universiteti bir tomondan va O'zbekiston tarafi ikkinchi tomondan mas'uliyati cheklangan jamiyat (MCHJ) shaklida qo'shma korxona tashkil qilish. Ushbu amaliyot O'zbekiston tajribasida Toshkent shahrida joylashgan Singapur menejmentni rivojlantirish instituti tajribasida mavjud. Ushbu holatda MCHJ ta'sischilari belgilangan ustav kapitalini kiritgan holda universitet filialini ochish bo'yicha barcha chora-tadbirlarni birga amalga oshiradilar va foyda hamda zarar uchun teng miqdorda javobgar bo'ladi.

Ushbu holatda xorijiy davlat universitetining ustav kapitalini shakllantirish bo'yicha hissasi ta'lim sifati, o'quv dasturlari va talablari, talabalar bilimni baholash, o'quv jarayoni muvofiqlashtirish va rejalashtirish, o'qituvchilarni tanlov asosida ishga olish hamda ularning malakasini oshirish, xorijiy universitet diplomini berish bilan belgilansa, O'zbekiston tarafi universitetni bino va barcha infrastruktura, moddiy-texnik jihatdan ta'minlash hamda marketing xizmati bilan o'z hissasini kiritadi. Ushbu modelning salbiy tarafi sifatida xorijiy investorlar tomonidan kelgusida universitetni boshqarish huquqini beruvchi hissasining oshishi va uni boshqarish va nazorat qilishda O'zbekiston tarafining vakolatlari kamayishi bilan belgilanadi. Bundan tashqari, qo'shma korxona sifatida tashkil qilingan universitet filialiga kelgusida boshqa xorijiy universitetlarni jalb qilish imkoniyati mavjud emas.

Ijobiy tarafi sifatida har yili aniq belgilangan pul miqdorini O'zbekiston tarafi to'lashga majbur bo'lmaydi. Tijorat tavakkalchiligi ishtirokchilar o'rtasida baravar taqsimlanadi. Universitet filialini boshqarishda har ikki taraf teng qatnashadi va buni MCHJ boshqaruv organi hal qiladi.

O'zbekistonda nodavlat oliy ta'lim tashkilotlarini litsenziyalash tizimi asosan markaziy davlat organlari tomonidan amalga oshirilishi va har bir faoliyat turi alohida litsenziya berilishi bilan ba'zi xorijiy davlatlardan farq qiladi. Ya'ni bu jarayonda oliy o'quv yurtlari tomonidan yangi yo'nalish tashkil qilinmoqchi bo'lsa, jarayon qaytadan boshlanadi.

O'zbekistonda oliy ta'lim tashkilotlariga litsenziyaning davlat organi tomonidan berilishini ko'rib chiqishga harakat qildik. Biroq bir qator xorijiy nashrlarni ko'rib chiqqanimizda oliy ta'lim tashkilotlariga litsenziya nodavlat, ya'ni xususiy firmalar tomonidan ham berilishiga guvoh bo'ldik.

AQShda yangi tashkil qilinadigan oliy ta'lim tashkilotlarini litsenziyalash va akkreditsiyadan o'tkazish ikki xil usulda milliy va hududiy tarzda amalga oshiriladi. Bularni o'tkazish esa, o'z navbatida, institusional akkreditatorlar (xorijiy mamlakatlarning mintaqada ochilgan universitetlari uchun xizmat qiladi) va ixtisoslashgan akkreditatorlar litsenziyalanadigan kasblar (huquq, tibbiyot va boshqalar) tomonidan amalga oshiriladi (Brittingham, 2018).

Nodavlat oliy ta'lim tashkilotlarida litsenziya olinganidan so'ng davlat oliy o'quv yurtlarida esa tashkil etilganidan keyingi bo'ladigan ma'muriy-huquqiy munosabat subyekti sifatida attestatsiyadan va davlat akkreditatsiyasidan o'tishda namoyon bo'ladi.

Vazirlar Mahkamasining 07.06.2019-yildagi "Davlat ta'lim muassasalari hamda nodavlat ta'lim tashkilotlarini attestatsiyadan va davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi 470-sonli qarori asosida amalga oshiriladi.

Attestatsiya va akkreditatsiya ta'lim tashkilotining faoliyatini baholashda davlat nazoratining asosiy shakli hisoblanib, ta'lim tashkilotlarida kadrlar tayyorlash mazmuni, darajasi va sifatining davlat ta'lim standartlariga, ta'lim talablariga hamda o'quv dasturlariga muvofiqligini aniqlashdan va ular-

ning bitiruvchilariga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ma'lumot to'g'risidagi hujjatlarni topshirish huquqini berishdan iborat.

Bu ma'muriy munosabatda oliy ta'lim tashkilotlari ma'muriy huquqning subyekti sifatida har 5 yilda bir marotaba ishtirok etadi va belgilangan tartibda individual tarzda sertifikat oladi va Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

Solishtirish uchun Qo'shma Shtatlarda akkreditatsiya agentliklari tomonidan qo'llanadigan akkreditatsiya tartibi odatda bir qancha bosqichlarni o'z ichiga oladi. Avvalo, akkreditatsiya qiluvchi agentlik sertifikat olishni istagan oliy o'quv yurtining umuman akkreditatsiya qilish huquqiga ega ekanligini tekshiradi (Beales, 1998).

Agar ta'lim tashkiloti munosib bo'lsa, unda kollej, universitet yoki dastur provayderi akkreditatsiya agentligi tomonidan oldindan belgilangan muassasaning ishlashini tavsiflovchi mustaqil tadqiqot xulosasini tayyorlab, ekspertlar guruhiga topshiradi va ularning xulosalari asosida sohaning tegishli tashkilotlari (xoh u davlat yoki nodavlat tashkiloti bo'lsin) tomonidan akkreditatsiya qilinadi. Masalan, huquq sohasidagi oliy ta'lim tashkilotlari uchun Advokatlar assotsiatsiyasi tomonidan amalga oshiriladi (Mause, 2008).

Oliy ta'lim tashkilotlari biz yuqorida ko'rib chiqqan holatlardan tashqari talabalar yoki xodimlar bilan bog'liq bo'lgan ma'muriy munosabatlarda ham subyekt sifatida ishtirok etishi mumkin.

Masalan, Toshkent shahri ma'muriy sudi apellatsiya instansiyasiga arizachi D. Hamdamov javobgar Toshkent Moliya institutining 17.05.2022-yildagi xati orqali murojaatini rad etishda ifodalangan harakatlarini qonunga xilof deb topishni va Toshkent Moliya institutiga o'qishga qabul qilish majburiyatini yuklashni so'rab, Toshkent tumanlararo ma'muriy sudiga murojaat qilgan va sudning 2022-yil 7-iyuldagi hal qiluv qarori bilan

arizachining arizasi qanoatlantirishdan rad etilgan.

Bundan norozi bo'lgan arizachi apellatsiya instansiyasiga ariza bilan murojaat qilgan.

Ish hujjatlaridan ko'rinishicha, arizachi D. Hamdamov 2018-yilda Rossiya Federatsiyasining davlat budjet tizimidagi Tomsk davlat radiotexnika va boshqaruv tizim universiteti iqtisodiyot mutaxassisligi bo'yicha o'qishga qabul qilingan. Toshkent Moliya institutining soliq va soliqqa tortish yo'nalishiga o'qishni ko'chirish maqsadida, 2020-yil iyul oyida hujjat topshirgan va Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan 2020-yil 15-sentabr kuni test sinovlaridan 63 ball to'plagan holda u o'qishni ko'chirishga tavsiya etilgan. Arizachi D. Hamdamov 2022-yil 10-mayda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga ariza bilan murojaat qilgan va uning arizasi 2022-yil 10-may kungi 10-5/4-660-sonli aloqa xati bilan taalluqliligi bo'yicha Toshkent moliya institutiga yuborilgan.

Toshkent moliya institutining 2022-yil 17-maydagi №30/1183-sonli xati bilan arizachi D. Hamdamovning arizasi qanoatlantirilmagan. Bundan norozi bo'lib, arizachi D. Hamdamov sudga mazkur shikoyat bilan murojaat qilgan.

Sudlov hay'ati birinchi instansiya sudining arizani qanoatlantirishdan rad etish haqidagi xulosasini o'z kuchida qoldirgan, ya'ni Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 20-iyundagi 393-son qarori bilan tasdiqlangan Nizomining 9-bandiga muvofiq, arizachi tomonidan to'lov-kontrakt asosida o'qishga tavsiya etilganlar to'lovni belgilangan muddatda amalga oshirmaganda, talabaning shaxsiy yig'ma jildi (akademik ma'lumotnoma) belgilangan muddatlarda taqdim etilmaganda, qonunchilikda belgilangan boshqa holatlarda fuqaroning o'qishini ko'chirish va qayta tiklash haqidagi arizasiga rad javobi berilishiga asos bo'lishi belgilangan.

Yuqorida qayd etilgan 10-5/4-660-sonli aloqa xatida arizachi D. Hamdamov 5230800

solliqlar va soliqqa tortish yo'nalishi bo'yicha 2-bandida jami 63 ball to'plagan, biroq, Nizom talablariga ko'ra belgilangan tartibda ariza topshirmagan, to'lov-kontrakt asosida to'lovni belgilangan muddatda to'lama-gan hamda arizachi tomonidan talabaning shaxsiy yig'ma jildi (akademik ma'lumotnoma) belgilangan muddatlarda taqdim etilmagan. Shu sababli sudning qaroriga asosan Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksning 189-moddasi va 219-moddasi 1-qismiga ko'ra, apellatsiya shikoyati qanoatlantirilmadan qoldirilgan.

Oliy ta'lim tashkilotlarini ro'yxatdan o'tkazish, litsenziyalash va boshqa holatlar bilan birga oliy o'quv yurtlarini boshqarish va nazorat qilishga oid munosabatlarda ma'muriy huquq subyekti sifatida ishtirok etishi mumkin [15, 84-b.].

Yuqorida qayd etilgan xorijiy mamlakatlarning milliy qonunchilik va olimlarning ilmiy ishlarida oliy ta'lim tashkilotlarining ma'muriy huquqning alohida subyekti sifatidagi ahamiyati, oliy o'quv yurtlarining toifasidan qat'i nazar, ularning davlat organlari bilan aloqalarini ma'muriy-huquqiy nuqtayi nazardan qiyosiy tahlili asosida bir qator ijobiy jihatlarni ko'rsatib o'tish lozim.

Bugungi kunda rivojlangan davlatlarda oliy ta'lim tashkilotlarining ma'muriy huquqning subyekti sifatida e'tirof etilishining ikki turi amaliyotda qo'llanadi: *birinchi*, litsenziyalash asosida – oliy ta'lim tashkilotlarining o'z faoliyat yo'nalishlarini boshlash uchun yuridik shaxs sifatida ro'yxatdan o'tgan bo'lishi, bino-inshootlari, moddiy-texnik bazasi shakllantiriladi; *ikkinchi*, akkreditatsiyalash asosida – xorijiy mamlakatlarda faoliyat olib borayotgan nufuzli davlat yoki no-davlat ta'lim tashkilotlarining boshqa mamlakatlarda filiallarini ochish orqali amalga oshiriladi.

Bundan tashqari, oliy ta'lim tashkilotlarini alohida ma'muriy huquqning subyekti sifatida ko'rilishi, fuqarolik huquqiy munosabatlarga tushgan yukning kamayishiga hamda

ma'muriy-huquqiy munosabatlarni konkretlashtirishga imkon beradi.

Ta'lim tashkilotlari va davlat organlari o'rtasida bo'ladigan ma'muriy-munosabatlarni nomarkazlashtirish, ya'ni Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligidan xususiy sohaga o'tkazish, davlat organlaridagi yuklamaning kamayishiga va ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi sog'lom muhitga zamin yaratadi.

Bu esa ilmiy yangilikning yaratilishiga va o'sishga yordam berish bilan birga innovatsion tadqiqot dasturlarini moliyalashtirishi, sohaga oid bo'lgan tashkilotlarning ma'muriy-huquqiy munosabatlardagi mustaqilligiga va ta'lim tashkilotining xalqaro obro'siga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Oliy ta'lim tashkilotlari muayyan ma'muriy-huquqiy munosabatlar tizimida ma'muriy huquqning subyekti sifatida "tashqi" va "ichki" tomonlarni ifoda etadi. Birinchi holda, bu ta'lim tashkilotiga yuklangan davlat funksiyalarini bajarish orqali shakllangan hokimiyat va bo'ysunish munosabatlari, ikkinchidan, ta'lim tashkiloti teng huquqli subyekt vazifasini bajaradigan ishtirokchi sifatida ko'riladi.

Shuningdek, ta'lim tashkilotlari ichidagi, hukumat va boshqaruv organlari bilan bog'liq ma'muriy munosabatlarda amaldagi qonunchilik sohani ma'muriy huquq subyekti sifatida ko'rsatish uchun asos hisoblanishi:

birinchidan, ta'lim tashkiloti ommaviy munosabatlarning alohida sohasi bo'lib, u yerda dastlab davlat, jamiyat va xususiy shaxslarning manfaatlari mavjudligi;

ikkinchidan, muassasalarni boshqarishda bo'ysunish, ma'muriy ta'sir usullariga oid munosabatlar emas, balki muvofiqlashtirish usullari tobora muhim rol o'ynashi;

uchinchidan, ta'lim tashkilotlarining boshqaruv usullarining amaldagi tizimidan kelib chiqadigan davlat o'rtasidagi boshqaruv munosabatlarini, birinchi navbatda, tartibga solish va o'zini o'zi boshqarishni tavsiflovchi zamonaviy vositalar qo'llanadi.

Xulosa

Oliy ta'lim tashkilotlarining maqomini ma'muriy-huquqiy munosabatda ko'rib chiqish oliy o'quv yurti faoliyatining nazariy va amaliy jihatlarini o'z ichiga oladi.

Ta'lim tashkilotlarining ma'muriy huquqning subyekti sifatidagi zamonaviy konsepsiyasida birinchi navbatda ommaviy sohada faoliyat yuritadigan ijtimoiy institutlar sifatida ochib berishga imkon beradi. Ularning roli davlat ta'lim siyosati tomonidan ularga yuklatilgan vazifalarning ahamiyatini ochib berish bilan belgilanadi.

Oliy ta'lim tashkilotlarning faoliyatida ma'muriy huquq subyekti bo'lib, yuridik shaxs sifatida ro'yxatdan o'tishi, yer uchastkasi, bino-inshoot bilan ta'minlanishi litsenziya va sertifikatga ega bo'lishi muhim ahamiyatga ega bo'lib, tashkilotning ma'lum bir huquqlari va majburiyatlarini amalga oshirish imkoniyatini aniqlashga imkon beradi.

REFERENCES

1. Aleixo, A. M., Leal, S., & Azeiteiro, U. M. (2018, January 20). Conceptualization of sustainable higher education institutions, roles, barriers, and challenges for sustainability: An exploratory study in Portugal. *Journal of Cleaner Production*, 172, 1664–1673.
2. Amaral, A. (2020). Federal States, States and Local Policies in Higher Education. In *International Encyclopedia of Higher Education Systems and Institutions* (pp. 431–436). <https://doi.org/10.1007/978-94-017-8905-9>

3. An Act to incorporate and provide for the institution and support of a University in Kansas Territory (1855). In *Laws of Kansas Territory*, 1-2, 783. U.S. sessions 34 Congress.
4. Beales, H. (1998). Licensing and certification systems. In P. Newman (Ed.), *The new palgrave dictionary of economics and the law* (Vol. 2, pp. 578–581). London: Macmillan.
5. Brittingham, B. (2018). US Accreditation and Quality Assurance, International Dimensions. In *Encyclopedia of International Higher Education Systems and Institutions*. Springer, Dordrecht. https://doi.org/10.1007/978-94-017-9553-1_266-1
6. Cave, M., Dodsworth, R., & Thompson, D. (1992). Regulatory reform in higher education in the UK: Incentives for efficiency and product quality. *Oxford Review of Economic Policy*, 8(2), 79–102.
7. Dubrovina, S. Yu. (2006). *Administrative and legal regulation of educational activity in Russia* (In Russian) (126 p.) [PhD thesis]. Saratov.
8. Hendricks, G. (1975, Summer). University Registration Systems: A Study of Social Process. *Human Organization. Ethnography of Schooling: A Special Issue*, 34(2), 173–181.
9. Karpen, U. (n.d.). Organization and procedures for funding higher education in the federal republic of Germany. *Higher Education in Europe*, 10(1), 114–123. doi:10.1080/0379772850100117.
10. Kazarova, N. F. (2005). *Administrative and legal organization of the mechanism of licensing of educational activity of institutions of higher and secondary vocational education* (In Russian) (p. 35) [PhD thesis]. Khabarovsk.
11. Kiryllovych, A. A. (2005). *Higher educational institution as a subject of administrative law* (In Russian) (p. 26) [PhD thesis]. Chelyabinsk.
12. Mause, K. (2008). Rethinking governmental licensing of higher education institutions. A Bibliometric Review based on Scopus. *European Journal of Law and Economics*, 25, 57–78. doi:10.1007/s10657-007-9036-4.
13. Pechar, H., Park, E. (2017). Higher Education Systems and Institutions, Austria. In J. Shin & P. Teixeira (Eds.), *Encyclopedia of International Higher Education Systems and Institutions*. Springer, Dordrecht. https://doi.org/10.1007/978-94-017-9553-1_365-1
14. Teixeira, P. J., Shin, J., & Amaral, A. (2020). The International Encyclopedia of Higher Education Systems and Institutions. In *Springer eBooks*. <https://doi.org/10.1007/978-94-017-8905-9>
15. Vladykina, T. A. (2003). Higher educational institution as a subject of civil law (In Russian) (p. 5) [Abstract of PhD thesis]. Ekaterinburg. <https://www.dissercat.com/>

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI
ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК
REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

Правовой научно-практический журнал

Legal scientific-practical journal

2024-yil maxsus son

VOLUME 8 / SPECIAL ISSUE / 2024

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2024.8.SN.

BOSH MUHARRIR:

Rustambekov Islambek Rustambekovich

Toshkent davlat yuridik universiteti rektori v.v.b., y.f.d.,
professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Xodjayev Baxshillo Kamolovich

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, y.f.d.,
professor

Mas'ul muharrir: O. Choriyev

Muharrirlar: Y. Yarmolik, M. Sharifova,

Y. Mahmudov, E. Mustafayev

Musahhih: K. Abduvaliyeva

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Veb-sayt: review.tsul.uz

E-mail: reviewjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1385.

Jurnal 16.02.2024-yilda tipografiyaga

topshirildi. Qog'oz bichimi: A4.

Shartli 21,15 b.t. Adadi: 100. Buyurtma raqami: 21.

TDYU tipografiyasida chop etildi.